



“Navoiy kon-metallurgiya kombinasi” aksiyadorlik jamiyatি

PRESS-RELIZ

2024-yil 9-sentabr

Mahalliyashtirish dasturi ijrosiga bag'ishlangan matbuot anjumani to'g'risida

2024-yil 9-sentabr kuni “NKMK” AJning matbuot anjumanlarini o'tkazish zalida “Navoiy kon-metallurgiya kombinatida mahalliyashtirish dasturi ijrosi: yutuq va rejalar” mavzusida ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun matbuot anjumani o'tkazildi.

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri – ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirishni davom ettirish hamda ehtiyyot va butlovchi buyumlar importining o'rnnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hisoblanadi.

Bu borada “NKMK” AJ tomonidan ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri – sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoniga ilmiy izlanish natijalari va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali mahalliy xom ashyo hamda sanoat kooperatsiyasi negizida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishdir.

Ta'kidlash kerakki, kombinatda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi 2000-yildan buyon amalga oshirilib kelinmoqda.

Kombinatning ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun so'nggi uch yilda korxonaning quvvatlarida **1,6 trln. so'mlik** mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi va tarmoqlararo kooperatsiya doirasida **14,2 trln. so'mlik** sanoat mahsulotlari xarid qilindi. 2024-yilda ham Mahalliyashtirish dasturi asosida kombinatda **183 ta loyiha** doirasida **905 mlrd. so'mlik** mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Mahalliyashtirish dasturi doirasida **177 ta loyiha** bo'yicha **620 mlrd. so'mlik** mahsulotlar ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **142,4 foizni** tashkil etdi.

Bundan tashqari, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning yanvar-avgust oylarida tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida ulardan **4,4 trln. so'mlik** import o'rnini bosuvchi mahsulotlar xarid qilinib, 2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,6 foizni** tashkil etdi.

Respublikamizda birinchi bo'lib Navoiy kon-metallurgiya kombinatida joriy etilgan "shataffa olish" mexanizmi doirasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy korxonalarini texnologik qo'llab-quvvatlash orqali so'ngi uch yilda **1 400 turdan ziyod 1,4 trln. so'mlik** sanoat mahsulotlari hamkorlikda ishlab chiqarilib, kombinat ishlab chiqarish jarayonlariga jalgan etildi.

"NKMK" AJ Mahalliylashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish bo'limi boshlig'i o'rinnbosari Fexruz Mardonov ta'kidlaganidek:

*"2030-yilgacha kombinatni barqaror rivojlantirish dasturi doirasida yangi loyihalarni ishga tushirish va amaldagilarni kengaytirish hisobiga 2025-yilda **185 ta loyiha** doirasida **1 trln. so'mlik** mahsulot ishlab chiqarish, mahalliylashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini 2024-yilga nisbatan **113 foizga** oshirish ko'zda tutilgan. Dasturga kiritilgan loyihalarning mahalliylashtirish darajasini o'rtacha **65 foizga** ko'tarish rejalashtirilgan. Mahalliylashtirilgan mahsulotlar tannarhida import qilinayotgan mahsulotlarni (asosan metall prokati) yirik tarmoq va mahalliy korxonalar quvvatlarida o'zlashtirish maqsad qilingan."*

Tadbirda OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

Murojaat uchun ma'lumotlar:

"NKMK" AJ Matbuot xizmati, Ish telefoni: **+99879 227-74-73**

"NKMK" AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

"NKMK" Ajning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

www.t.me/ngmkofficial

www.fb.com/nkmkofficial

www.instagram.com/nkmk.official

www.youtube.com/nkmkofficial

www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/

www.twitter.com/jsc_nmmc